
“Matematikaning zamonaviy muammolari” respublika onlayn anjumani o’tkazildi

O’zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Matematika instituti hamda Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti hamkorlikda “Matematikaning zamonaviy muammolari” mavzusida respublika onlayn anjumani o’tkazildi.



Unda respublikamizning turli hududlaridan 100 dan ortiq matematik olimlar, yosh tadqiqotchilar ishtirok etdi. Bu anjuman o’zaro fikr va tajriba almashishdan tashqari, yosh izlanuvchilar uchun kelgusidagi ilmiy izlanishlarini aniq belgilab olishlarida ham juda muhim ahamiyatga ega.